

INGLIZ TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI VOSITALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

Saypiyeva Dilbar Otabek qizi

Samarqand Davlat Chet tillari institute 5-kurs talabasi

Gmail: saypiyevadilbar@gmail.com

Ilmiy rahbar

Ergashev Mirsaid Baxtiyorovich

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tili ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va vositalardan samarali foydalanishning ahamiyati, ularning o'quvchilarning motivatsiyasi va til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, raqamli platformalar, interaktiv ilovalar va onlayn resurslardan foydalanish usullari, ularni dars jarayoniga to'g'ri integratsiya qilish yo'llari haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Raqamli vositalar, ingliz tili, ta'lim jarayoni, onlayn resurslar, interaktiv o'qitish, motivatsiya, texnologiya integratsiyasi.*

KIRISH.

Globalashuv va raqamli texnologiyalar davrida chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'qitish jarayoni yangi pedagogik yondashuvlarni, zamonaviy metodlarni va raqamli texnologiyalarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonining interaktivligi, moslashuvchanligi va shaxsga yo'naltirilganligi uning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ingliz tilini o'qitishda talabalarning zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta'lim paradigmasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktyabrda PF 5847-son hamda "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son farmonlarida ham asosan, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish kabi dolzarb masalalar qo'yilganligi yuqoridagi fikrimizning isbotidir. [1].

Bu borada hurmatli yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning "Hayotimizning eng muhim jabhalari uchun yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, jahon axborot texnologiyalari bozorida munosib o'rin egallash masalasiga ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qarashimiz zarur", degan fikrlarini aytib o'tish joyizdir [2].

Biz maqolamizni ingliz tili darslarini tashkil etishda raqamli vositalarning orni borasidagi fikrlarimiz bilan davom ettirsa.

Raqamli vositalarning darslarni tashkil etishdagi o'rni.

Asosiy qism: XIX asrning globalashuv jarayonida ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalarsiz tassavvur etib bo'lmaydi. Raqamli vositalar bilan darslarni unumli o'tkazish, talaba ishtirokini oshirish va mavzu bo'yicha ma'lumotlarni qiziqarli yetkazish imkonini beradi. Pedagog hozirgi paytda faqatgina ma'lumot beruvchi emas, balki zamonaviy texnologiyalarni o'rgatuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Vardhini (2024) o'z tadqiqotida ta'limning raqamlashtirilishi o'quvchi va o'rtasidagi munosabatni yangicha formatda shakllantirishini, bu jarayonda raqamli vositalarning markaziy rol o'ynashini ta'kidlagan [7].

Zamonaviy texnologiyalarni o'qitish jarayonining barcha jabhalariga tayyorgarlik, dars berish, baholash va tahlil qilishga ta'sir qiladi. Vardhini (2024) o'z tadqiqotida zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslarda talabalarning bilimni o'zlashtirishdagi ko'rsatkichi 35% ga oshganini ilmiy tajriba asosida isbotlagan[3]. Misol uchun, Google Classroom orqali pedagog topshiriqlarni onlayn tarzda jo'natadi, javoblarini masofaviy baholaydi va tahlil qiladi. Bu dars jarayonini raqamlashtirish, vaqtdan unumli foydalanish hamda qarama-qarshi aloqa samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, Obidovna(2023) O'zbekiston ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar darslarni tashkil etishdagi samaradorlikni oshirganini, xususan pandimiya davridan keyin bu jarayon jadal rivojlanganini aytib o'tgan[6].

Shuningdek, pandimiya davrida ta'lim tizimiga „**Hemis, Moodle, Zoom**“ platformalari kirib kelganligi, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish dars jarayonlarini to'xtat qolish oldini olganligini hamda zamonaviy texnologiyalar darslarni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va juda katta imkoniyatlar yaratganini aytib o'tishimiz joizdir.

Qaysi raqamli vositalar ingliz tilida yozish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar o'quv jarayonini bir butun qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari yozish ko'nikmalari rivojlantirishda turli xil raqamli vositalar, har xil platformalar, suniy intellektual asoslangan dasturlar va o'qituvchi va o'quvchi birgalikda ishlaydigan ilovalar hamda pedagog va talabalar uchun jadal rivojlangan imkoniyatlar yaratmoqda. Hozirgi an'anaviy yozish mashqlari o'rniga, hozirda o'quvchilar **Google Docs, Grammarly, ChatGPT, Padlet, va Write&Improve** kabi onlayn platformalarda yozma insholarni yozish, tahrirlash hamda qarama-qarshi aloqa qilish imkonini beradi.

Ebrahim (2024) ta'kidlaganidek, yozuv jarayonini raqamlashtirish talabalarni faollikka undaydi, ular o'z ishlarini o'sha zahoti korib chiqish va tahrir qilish, o'z xatolari ustida ishlash imkoniyatga ega bo'ladi. Shuningdek bu jarayon yozish ko'nikmasini hamda ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganish jarayonini tezlashtiradi[4].

Ingliz tilida yozish ko'nikmasini grammatik bilimlarsiz tassavvur qilish qiyin. Shuuning uchun, **Grammarly, Ginger** va **Language Tool** kabi onlayn platformalar yozma xatolarni tahlil qilish, imlo sintaksis jihatdan tuzatish orqali yozish jarayonini osonlashtiradi.

Khan(2024) o'z tadqiqotida Grammarly vositasining ta'sirini tahlil qilib, bu dastur talabalarning grammatik xatolarini 35% ga kamaytirganini ko'rsatgan[5].

Ebrahim (2024) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan **“Write & Improve”** platformasining samaradorligi o'rganilgan. Unga ko'ra, bu vosita o'quvchilarning yozuv darajasini avtomatik tahlil qilib, leksik, grammatik va uslubiy jihatdan aniq baholaydi. O'quvchi yozgan matn darhol tahlil qilinib, “feedback” orqali takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu tizim o'quvchini o'z yozuv ustida takroriy ishlashga undaydi [4]. Shuningdek, bu vositalar o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkonini beradi, bu esa zamonaviy ta'limda muhim yondashuv hisoblanadi. Ebrahim (2024), hamda Khan (2024) ning tadqiqotlari raqamli yozuv vositalari yordamida o'quvchilarning natijalari sezilarli yaxshilanganini isbotlagan. Shunday ekan, o'qituvchilar raqamli platformalarni yozma nutqni rivojlantirishda faol qo'llashlari zarur.

Raqamli vositalardan samarali foydalanish usullari

So'ngi besh yillikda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish o'quv sifatini oshirish, pedagog va talaba o'rtasidagi kommunikativ aloqani rivojlantirish hamda o'quv jarayonini qiziqarli o'tkazishda yordam beradi. Hozirgi davr talabalariga mos o'qitish jarayonini faqatgina malumotlarni uzatishgina emas, balki o'quvchining faol ishtirokini taminlashi zarur. Shuning uchun, Zhao et al (2025), Alvarez (2023) kabi olimlar zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish taktikalarini o'rganib, ularni tizimli tavsiyalar bilan ta'minlaganlar.

Zhao et al (2025) o'rganishlar jarayonida zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishning birinchi usuli sifatida „**blended learning**“ aralash o'qitish usulini ta'kidlagan. Bu yondashuvda darsning bir qismini

ananaviy sinf xona muhitida, qolgan qismini bo'lsa masofaviy platformalarda Moodle, Google Classroom, o'tkazish mumkinligini misollar bilan tushintirib o'tgan.[8]

Blended learning orqali talabalar o'z o'rganish jarayonini mustaqil aniqlash imkoniga ega bo'lsa, qiziqarli topshiriqlar, video qo'llanmalar va onlayn testlar yordamida bilimlarini mustahkamlashadi. Shu bilan bir qatorda, pedagog darsni kuzatish va Unga baho berishni samarali amalga oshiradi.

Alvarez (2023) ta'limda raqamli vositalarni samarali qo'llashning ikkinchi usuli sifatida vazifa asosida o'qitishni **Task-Based Learning** tavsiya qiladi. Bu yondashuvda o'quvchilar ma'lum vazifalarni bajarish orqali bilimni amaliy qo'llashadi. Masalan, **Kahoot**, **Quizizz** yoki **Padlet** kabi platformalar yordamida vazifa bajarish jarayoni interaktiv va qiziqarli bo'ladi [3].

Shu tarzda o'quvchi faqat nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirmaydi, balki ularni real kontekstda qo'llashni o'rganadi. Alvarez ta'kidlaganidek, interaktiv vazifalar talabaning motivatsiyasini oshiradi va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarini tashkil etishda raqamli vositalardan foydalanish nafaqat o'qitish sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muloqot qilish va ijodiy yondashuvini ham rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar darsning o'zigina bo'lib qolmay uning bir qismi sifatida ta'limni samarali rivojlantirishga hissa qo'shishi kerak. Shunday ekan, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish zamon talabi bo'lib, har bir o'qituvchi bu borada o'z ustida ishlashi zarur.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli vositalardan foydalanish bilan bog'liq yangi metodik yondashuvlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili o'qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqadi va o'quvchilarning zamonaviy talablar asosida til kompetensiyasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida " PF-5847-SON 08.10 2019-yil
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz T, "O'zbekiston " NMIU, 2017y. 16.b.
3. Alvarez, M. (2023). Task-based digital learning: Enhancing student engagement through technology. *International Journal of Modern Teaching*, 15(3), 112–129.
4. Ebrahim, R. (2024). Digital writing tools in ESL classrooms: Enhancing student engagement and accuracy. *Journal of Educational Technology and Language Learning*, 18(2), 45–59.
5. Khan, M. (2024). The role of AI-based grammar checkers in improving EFL learners' writing skills. *Language Teaching Innovations*, 9(1), 21–35.
6. Obidovna, N. (2023). Raqamli texnologiyalar yordamida darslarni tashkil etishning innovatsion yondashuvlari. *O'zbekiston Respublikasi Pedagogika jurnali*, 6(3), 55–67.
7. Vardhini, S. (2024). Integrating Digital Tools in Classroom Instruction: A Pedagogical Perspective. *International Journal of Educational Innovation*, 18(1), 22–39.
8. Zhao, L., Chen, H., & Wang, J. (2025). Effective use of digital tools in blended learning environments. *Journal of Educational Technology & Innovation*, 20(1), 50–68.